


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor
G.Q. Abdurahmonova



« » 2026 y.

08.00.09 – “JAHON IQTISODIYOTI”

ixtisosligi bo'yicha 2026 yil uchun tayanch doktoranturaga
kirish imtihonini topshirish

D A S T U R I

Toshkent – 2026

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun “Jahon iqtisodiyoti” fanidan kirish imtihonlarini o‘tkazish dasturi TDIU Kengashining 2026 yil «26» 08 dagi 1 son - qarori bilan tasdiqlangan.

Fan dasturi “Jahon iqtisodiyoti va XIM” kafedrasining 2026 yil « » dagi sonli bayonnomasi bilan universitet Kengashiga tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



i.f.n., prof. Ismailova N.S.

Tuzuvchilar: Ismailova N.S. – TDIU “Jahon iqtisodiyoti va XIM” kafedrası mudiri, i.f.n., prof.

Yusupov A.S. – TDIU “Jahon iqtisodiyoti va XIM” kafedrası professori, DSc., prof.

Taqrizchilar: Islamov B.A. – G.V.Plexanov nomidagi RIUning Toshkent shahridagi filiali “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.d., prof.

Sharifxodjayev SH.A. – JIDU “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.d., prof.

Kirish

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlariga muvofiq mamlakatimizda ilmiy – pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayoni, mutaxassislarining kasbiy mahoratini yanada oshirish va malakali iqtisodchi kadrlarni zamonaviy xalqaro andozalar talablari darajasida tayyorlashni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, intellektual g'oya va innovatsion yangiliklar yaratish bilan bog'liq XXI asrda jahon iqtisodiyoti sohasidagi xalqaro tajriba va andozalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ishlarni olib borish hozirgi globallashuv davrining eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Qolaversa O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida ham ilmiy va innovatsion faoliyatda raqobatbardosh kadrlar intellektini mustahkamlash, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi samaradorligini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari o'z aksini topgan.

Mamlakat Prezidenti ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi O'yg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgilab oldik.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar jahon iqtisodiyotining zamonaviy asoslari va muhim iqtisodiy masalalarni qamrab oladi.

Dasturda qo'yilgan mavzu va masalalar "Jahon iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha doktoranturaga da'vogarlarining faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki sohaga tegishli muammolarni tadqiq etish va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab qiladi.

Dastur 08.00.09 – "Jahon iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha taya'ch doktoranturaga kiruvchilar uchun mutaxassislik fanidan kirish imtihoni topshirishga mo'ljallangan va ixtisoslik pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

JAHON IQTISODIYOTI

1. Jahon iqtisodiyoti faniga kirish: kursining mazmuni va asosiy vazifalari

Jahon iqtisodiyoti fanining mohiyati, predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari. Jahon iqtisodiyoti milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida. Jahon iqtisodiyotining sub'ektlari. Jahon iqtisodiyotining iqtisodiy salohiyati va undan samarali foydalanish muammolari. Iqtisodiy fanlar tizimida milliy iqtisodiyot va xalqaro iqtisodiyotning o'rni. Mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, moliya, iqtisodiy o'sish nazariyasi va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi. Xalqaro iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy nazariyaning dinamik rivojlanayotgan yo'nalishi sifatida. Jahon iqtisodiyotida globallashuv, mintaqaviy integratsiya va geoiqtisodiy jarayonlar. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining asosiy muammolari: global iqtisodiy notenglik, kambag'allik, tashqi qarzdorlik, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, iqlim o'zgarishi va resurslar cheklanganligi. m Raqamli transformatsiyaning jahon iqtisodiyotiga ta'siri.

2. Jahon xo'jaligining mohiyati, shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Jahon xo'jaligining mohiyati. Jahon xo'jaligining iqtisodiy rivojlanish tarixi. Jahon bozorining shakllanishi. Jahon xo'jaligi tizimi rivojlanishining asosiy bosqichlari. Monopolistik ittifoqlar va jahon kon'yunkturasi. XX asrning ikkinchi yarmida jahon xo'jaligi: «Markaz» va «periferiya» tushunchasi. Xalqaro raqobat – jahon bozorining ajralmas bir qismi sifatida. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va xalqaro rakobatning kuchayishida fan-texnika iaraqqiyoti (FTR)ning roli. Jahon xo'jaligining transmilliylashuvi va globallashuvi.

3. Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'ra klassifikatsiyalanishi. Jahon iqtisodiyoti markazlari.

Jahon xo'jaligi sub'ektlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi. Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'ra klassifikatsiyalanishi. BMT hamda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning guruhlash tamoyillari. Milliy iqtisodiyotlarning jahon xo'jaligi aloqalaridagi o'rni va ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholanishi. Mamlakatlarning yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki yalpi milliy mahsulot (YAMM) hajmiga ko'ra ifadalanishi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni to'g'ri kelishi, o'rtacha ish haqi miqdori, tashqi savdo operatsiyalarining hajmi, kapital harakati ko'rsatkichlari, tashqi qarzdorlik miqdori va h.k.lar. Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan, rivojlanayotgan hamda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhi.

4. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. Rivojlanishning asosiy makroiqtisodiy modellari

Zamonaviy iqtisodiy tizimlar va ularning rivojlanish qonuniyatlari. Zamonaviy iqtisodiy o'sish omillari. Global va mintaqaviy taraqqiyot modellari. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy makroiqtisodiy modellari. Neoliberal iqtisodiy rivojlanish modeli. Iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli. Iqtisodiy

rivojlanishning Sharqiy Osiyo modeli. Iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligi.

5. Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan mamlakatlar

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy mezonlari, tasnifi iqtisodiy taraqqiyot modellari. Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi zamonaviy tendentsiyalar va ustuvor yo'nalishlar. G'arb mamlakatlarining sanoatlashuv va iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha tabaqalanishi hamda differentsiatsiyalashuvi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarmoq va institutsional tarkibi. AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va amal qilish mexanizmlari. Milliy ichki bozorlarning hajmi, sig'imi va rivojlanganlik darajasi. Iste'mol va investitsiya talabining shakllanishi, ishlab chiqarish ehtiyojlari va bozor taklifining tarkibiy xususiyatlari.

Rivojlangan mamlakatlarda ichki bozorlarning institutsional tuzilishi, bozor sub'ektlari va ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar. Ichki narxlarning shakllanishi va dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot negizida «yangi iqtisodiyot»ning shakllanishi va rivojlanishi. Davlatning rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish mexanizmlari va davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari.

6. Rivojlanayotgan mamlakatlar – jahon xo'jaligi tizimida

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy belgilari va guruhlanishi. Rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan differentsiyalashuvi. Rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni. Bozorlar hajmi va rivojlanish darajasi. Iste'mol talabi. Ishlab chiqarish talabi. Taklif strukturasidagi o'zgarishlar. Rivojlanayotgan davlatlar ichki bozorlarining o'ziga xos xususiyatlari. Jahon ishlab chiqarishda rivojlanayotgan davlatlar. Rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni. Rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi hamda xalqaro kapital migratsiyasida tutgan o'rni. Jahon xo'jaligida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan davlatlarning tutgan o'rni. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish modellari. Rivojlanayotgan davlatlar tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari. Tashqi savdoda proteksionizm siyosati. Rivojlanayotgan davlatlarning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari.

7. Jahon iqtisodiyotida “yangi industrial mamlakatlar”

Yangi industrial davlatlarga umumiy tavsif. Yangi industrial mamlakatlarning guruhlanishi. “Yangi industrial davlatlar guruhi”ga mansublikni ifodaluvchi asosiy iqtisodiy mezon va ko'rsatkichlar tizimi. Yangi industrial davlatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari. Osiyo –Tinch okean mintaqasi va Lotin Amerikasidagi yangi industrial davlatlar. Yangi industrial davlatlar xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro kapital va ishchi kuchi migratsiyasi tizimida.

8. BRICS mamlakatlari iqtisodiyoti va ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini

BRICS mamlakatlarining iqtisodiy salohiyati, milliy iqtisodiyotlarining tarkibiy xususiyatlari va rivojlanish modellari. Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi, Misr, Efiopiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Indoneziya iqtisodiyotlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning jahon iqtisodiyotidagi raqobatbardoshlik omillari. BRICS doirasida savdo-iqtisodiy, investitsion va sanoat kooperatsiyasining rivojlanishi. BRICSning xalqaro moliya tizimidagi roli. Yangi taraqqiyot bankining faoliyati, infratuzilmaviy va barqaror rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari. BRICS mamlakatlarining raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, innovatsiyalar va texnologik rivojlanish sohalaridagi hamkorligi. Yashil iqtisodiyotga o'tish, iqlim o'zgarishiga moslashish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. BRICSning global iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro institutlarda rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini ifodalashdagi roli. BRICSning «Global Janub» mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi va uning ko'p qutbli jahon iqtisodiyoti shakllanishidagi ahamiyati. BRICSning institutsional kengayishi, yangi a'zo va hamkor mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari. BRICS iqtisodiy hamkorligining mavjud imkoniyatlari, institutsional muammolari va uzoq muddatli rivojlanish stsenariylari.

9. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari va ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini

O'tish iqtisodiyoti tushunchasi, uning nazariy-metodologik asoslari va zamonaviy transformatsiya jarayonlari. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizimga o'tishning ob'ektiv shart-sharoitlari, maqsadlari va asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiy institutlarni transformatsiya qilish, mulkchilik munosabatlarini isloh etish, raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorning rolini oshirish. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va zamonaviy tasnifi. Iqtisodiy liberallashtirish, xususiylashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliya va bank tizimini isloh qilish hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlari. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida tarkibiy o'zgarishlar, sanoatni modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish masalalari. Raqamlashtirish, innovatsion rivojlanish va texnologik modernizatsiyaning o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiy transformatsiyasidagi ahamiyati. Raqamli infratuzilma, elektron hukumat va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiy o'sishning barqarorligi va tashqi hamda ichki shoklarga moslashuvchanlik. Geosiyosiy, energetik, moliyaviy va texnologik o'zgarishlarning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri. Transformatsiya jarayonlarining uzoq muddatli natijalari, mavjud muammolar va iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modellari.

10. MDH mamlakatlari — jahon xo‘jaligi tizimida

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining (MDH) shakllanishi, institutsional rivojlanishi va zamonaviy iqtisodiy mazmuni. MDH mamlakatlarining jahon xo‘jaligi tizimidagi o‘rni, iqtisodiy salohiyati, resurs bazasi va tashqi iqtisodiy aloqalarining xususiyatlari. MDH mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi, tarkibiy xususiyatlari va iqtisodiy transformatsiya modellarining diversifikatsiyasi. MDH mamlakatlarining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari. Iqtisodiy o‘shishning asosiy omillari, inflyatsiya, mehnat bozori, aholi daromadlari va inson kapitali dinamikasi. MDH doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlik va integratsiya jarayonlari. MDH mamlakatlarining global qiymat zanjirlaridagi ishtiroki, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va yangi tashqi bozorlarga chiqish strategiyalari. Raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish va texnologik modernizatsiyaning MDH mamlakatlari iqtisodiyotidagi ahamiyati. MDH mamlakatlarining tashqi savdo va investitsiya geografiyasidagi o‘zgarishlar. Iqtisodiy aloqalarning diversifikatsiyasi, yangi savdo va investitsiya sheriklarining shakllanishi, mintaqaviy va global bozorlarga integratsiyalashuvning yangi tendentsiyalari.

11. Yangi O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning mazmuni, maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tarkibiy xususiyatlari va jahon iqtisodiyotidagi mavqei. YAIMning dinamikasi va tarmoqlar tarkibi, aholi jon boshiga YAIM ko‘rsatkichlari, xarid qobiliyati pariteti asosidagi iqtisodiy salohiyat. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, qurilish va boshqa tarmoqlardagi tarkibiy o‘zgarishlar hamda ularning iqtisodiy o‘shishga ta’siri. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari va global iqtisodiy integratsiyasi. Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi, eksport va importning tovar hamda geografik tarkibi. Eksport salohiyatini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko‘paytirish va tashqi savdoni diversifikatsiyalash strategiyalari. O‘zbekistonning global qiymat zanjirlaridagi ishtiroki va tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya muhitini takomillashtirish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi, investitsiyalarning tarmoq va hududiy taqsimoti, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari. Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xususiy kapitalni rag‘batlantirish va transmilliy kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish. O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorligi. Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiya, savdo va investitsiya aloqalarining rivojlanishi. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligi va jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvi. Transport-logistika salohiyatini rivojlantirish va O‘zbekistonning mintaqaviy transport koridorlaridagi o‘rni. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish. «Yashil» iqtisodiyotga o‘tish va barqaror rivojlanishning O‘zbekiston iqtisodiy siyosatidagi o‘rni. Energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari. Barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlash mexanizmlari. O‘zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish strategiyalari. 2017 yilda qabul qilingan

Harakatlar strategiyasi, 2022 yilgi Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va «O'zbekiston – 2030» strategiyasining iqtisodiy mazmuni, maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiy islohotlarning uzoq muddatli natijalari, mavjud muammolar va O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlash istiqbollari.

12. Jahon xo'jaligi va zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar yagona tizim sifatida

Zamonaviy jahon xo'jaligining mohiyati, tarkibi va institutsional asoslari. Jahon xo'jaligining asosiy sub'ektlari. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ob'ektlari, sub'ektlari va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tizimi. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllari. Globallashuvning yangi bosqichi va jahon xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar. Global qiymat zanjirlarining transformatsiyasi, xalqaro ishlab chiqarishning qayta joylashuvi, iqtisodiy integratsiya va mintaqaviylashuv jarayonlarining kuchayishi. Jahon xo'jaligining zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari. Jahon iqtisodiyotida barqaror va inklyuziv rivojlanish tendentsiyalari. «Yashil» iqtisodiyotga o'tish, iqlim o'zgarishi, energiya transformatsiyasi, resurslardan samarali foydalanish va global ekologik muammolarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ta'siri. Global iqtisodiy inqirozlar va transchegaraviy shoklarning jahon xo'jaligiga ta'siri. COVID-19 pandemiyasi, global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, energetik va oziq-ovqat inqirozlari, moliyaviy va geoiqtisodiy xatarlarning milliy iqtisodiyotlar va jahon bozorlariga ta'siri. Xalqaro iqtisodiy boshqaruv tizimining zamonaviy transformatsiyasi. Jahon savdo, moliya va investitsiya tizimlarini tartibga solishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning roli. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish istiqbollari.

13. Xalqaro mehnat taqsimoti. Ixtisoslashuv va kooperatsiya.

Xalqaro mehnat taqsimotining (XMT) mohiyati, nazariy asoslari va jahon iqtisodiyotidagi o'rnini. XMTning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuviga ta'siri. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi, ularning shakllari va rivojlanish omillari. Zamonaviy sharoitda global qiymat zanjirlarining shakllanishi va transformatsiyasi. Xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatlar va mintaqalarning ishtirok darajasini baholashning uslubiy asoslari. Mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish va savdo tizimidagi o'rnini baholash ko'rsatkichlari. Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishning milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligi, eksport salohiyati, texnologik rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga ta'siri. Rivojlanayotgan mamlakatlarning global qiymat zanjirlarida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi segmentlarga bosqichma-bosqich o'tish strategiyalari, bunda texnologik modernizatsiya, innovatsiyalar, inson kapitalini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashuvi va eksport tarkibini diversifikatsiya qilishning ahamiyati. O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti, global qiymat zanjirlari hamda mintaqaviy ishlab chiqarish kooperatsiyasidagi ishtirokini kengaytirish yo'nalishlari, mamlakatning eksport

salohiyatini oshirish, sanoat tarmoqlarida mahalliy qo'shilgan qiymat ulushini ko'paytirish va Markaziy Osiyo doirasida ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish istiqbollari.

14. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishini baholash ko'rsatkichlari

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishini baholashning nazariy va uslubiy asoslari. Mamlakatlar va mintaqalarning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi. Mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuv darajasi va tashqi savdo tarkibini baholash ko'rsatkichlari. Xalqaro mehnat taqsimotida mintaqalar va mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'rnini baholash. Eksport kvotasi va tashqi savdo ochiqligi darajasini shakllantiruvchi omillar. Xalqaro mehnat taqsimoti ko'rsatkichlarini kompleks baholash va ulardan iqtisodiy tahlilda foydalanish. Ko'rsatkichlar dinamikasini taqqoslash, mamlakatlar va mintaqalarning tashqi iqtisodiy ixtisoslashuvidagi o'zgarishlarni aniqlash hamda xalqaro raqobatbardoshlikni baholashda ularning ahamiyati.

15. Tovarlar va xizmatlarning xalqaro savdosi va uning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'rni

Xalqaro savdoning mohiyati, nazariy asoslari va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o'rni. Tovarlar xalqaro savdosining shakllanishi, rivojlanish dinamikasi va zamonaviy tendentsiyalari. Xizmatlarning xalqaro savdodagi o'rni va iqtisodiy mazmuni. Xizmatlar xalqaro savdosining asosiy turlari va tasnifi. Transport, turizm, moliyaviy, telekommunikatsiya, axborot-kommunikatsiya, biznes va professional xizmatlarning xalqaro bozorlardagi rivojlanishi. Xizmatlar savdosining dinamikasi, geografik va tarmoq tarkibi. Xalqaro xizmatlar savdosining raqamlashuvi va transformatsiyasi. Raqamli xizmatlar, elektron tijorat, masofaviy xizmatlar, raqamli moliyaviy xizmatlar va transchegaraviy ma'lumotlar oqimining xalqaro savdoga ta'siri. Texnologik taraqqiyot va sun'iy intellektning xizmatlar xalqaro savdosi tarkibi hamda geografiyasiga ta'siri. Xalqaro savdo siyosatining asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari. Tarif va notarif tartibga solish vositalari, savdoni liberallashtirish va proteksionizm o'rtasidagi zamonaviy nisbat. Xizmatlar savdosini tartibga solishning xalqaro mexanizmlari. Jahon savdosida global qiymat zanjirlari, ta'minot zanjirlari va elektron savdoning roli. O'zbekistonning tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosidagi ishtiroki. Tashqi savdoning tovar va geografik tarkibi, xizmatlar eksportining rivojlanishi, eksport salohiyatini diversifikatsiyalash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega tovarlar hamda xizmatlar eksportini kengaytirish imkoniyatlari. O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy savdo tizimiga integratsiyalashuvi, mavjud imkoniyatlar va rivojlanish istiqbollari.

16. Jahon savdosini xalqaro tartibga solish. Jahon savdo tashkiloti (JST)

Jahon savdosining mohiyati, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari. Xalqaro tovarlar va xizmatlar savdosining jahon iqtisodiyotidagi o'rni, savdo oqimlarining tarkibiy va geografik o'zgarishlari. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadlari, tamoyillari va asosiy usullari. Tarif va notarif tartibga solish vositalari, bojxona tariflari, kvotalar, litsenziyalash, texnik

reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya choralari hamda boshqa savdo siyosati instrumentlarining milliy iqtisodiyotga ta'siri. Jahon savdosini xalqaro tartibga solish tizimining shakllanishi va institutsional asoslari. JSTning asosiy tamoyillari va kelishuvlari. Jahon savdo tizimida erkinlashtirish va proteksionizm o'rtasidagi nisbat. Zamonaviy proteksionizmning shakllari va instrumentlari, savdo cheklovlarining milliy ishlab chiqarish va xalqaro raqobatga ta'siri. Mintaqaviy savdo kelishuvlari va erkin savdo zonalarining jahon savdo tizimidagi o'rni. Iqtisodiy integratsiya jarayonlari, ikki tomonlama va mintaqaviy savdo bitimlarining ko'payishi hamda ularning ko'p tomonlama savdo tizimiga ta'siri. Zamonaviy jahon savdosining transformatsiyasi. Elektron tijorat, raqamli xizmatlar, sun'iy intellekt, transchegaraviy ma'lumotlar oqimi va raqamli savdo mexanizmlarining rivojlanishi. Global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi, ta'minot zanjirlarining diversifikatsiyasi, «yaqinlashtirish» (nearshoring) va «ishonchli hamkorlar bilan hamkorlik» (friendshoring) tendentsiyalarining xalqaro savdoga ta'siri. Jahon savdosida barqaror rivojlanish va «yashil» transformatsiya masalalari. Ekologik standartlar, uglerod tartibga solish mexanizmlari, yashil texnologiyalar va iqlim siyosati bilan bog'liq savdo choralarining xalqaro savdoga ta'siri. Mamlakatlarning global savdo tizimiga integratsiyalashuv tajribasi. JSTga a'zo bo'lishning iqtisodiy va institutsional shartlari, milliy qonunchilikni xalqaro savdo qoidalariga moslashtirish, tashqi savdo rejimini liberallashtirish va milliy raqobatbardoshlikni oshirish masalalari. O'zbekistonning jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvi.

17. Xalqaro turizm va xalqaro transport xizmatlari

Xalqaro turizm, uning asosiy shakllari. Xalqaro turizmning o'ziga xos xususiyatlari. Sayyohlik mahsulotlari va xizmatlarini taklif etuvchi firma va korxonalar. Xalqaro turizmning rivojlanishi. Xalqaro sayyohlik biznesi tashkiloti. Xalqaro sayyohlik tashkiloti (XST). Jahon bozorida transport xizmatlari va uning asosiy ko'rinishlari. Dengiz transporti. Dengizda yuk tashish. Dengizda yuk tashishning xalqaro miqyosda tartibga solinishi. Xalqaro dengiz tashkiloti. Havo transporti. Xalqaro havo yuktashuvi. Havo yuktashuvchilari. Havoyuktashuviga xizmat ko'rsatish. Havo yuk tashuvini xalqaro miqyosda tartibga solish. Fuqarolar aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO). Fuqarolar aviatsiyasi intaqaviy hukumatlararo tashkiloti. Havo transporti xalqaro Assotsiatsiyasi (IATA).

18. Texnologiyalar xalqaro bozori

Xalqaro texnologiyalar bozorining mohiyati, tarkibi va jahon iqtisodiyotidagi o'rni. Texnologiyalarning xalqaro harakati, texnologik almashinuvning iqtisodiy mazmuni va uning milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi, innovatsion rivojlanishi hamda mehnat unumdorligiga ta'siri. Texnologiyalar transferi va uning asosiy shakllari. Litsenziya savdosi, franchayzing, injiniring xizmatlari, texnologik konsalting, qo'shma korxonalar, strategik hamkorlik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va transmilliy korporatsiyalar orqali texnologiyalarning xalqaro harakati. Intellektual mulk huquqining xalqaro tartibga solinishi. Intellektual mulkni himoya qilishning xalqaro tamoyillari, xalqaro konventsiyalar va bitimlar tizimi. Jahon intellektual mulk tashkiloti (VOIS)ning maqsad va vazifalari, institutsional

tuzilishi hamda intellektual mulk huquqlarini xalqaro tartibga solishdagi o'rni. Yevropa patent tashkiloti (YEPO)ning maqsad va vazifalari, institutsional asoslari va Yevropa patent tizimidagi o'rni. Texnologik almashinuvning zamonaviy shakllari va raqamli transformatsiyaning texnologiyalar bozoriga ta'siri. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, platformalar, dasturiy mahsulotlar va raqamli xizmatlarning xalqaro harakati. Texnologiyalar xalqaro bozorida transmilliy korporatsiyalarning roli. Texnologik liderlik, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining xalqarolashuvi, korporativ innovatsiyalar va texnologik standartlarning shakllanishi. Texnologik qaramlik, texnologik xavfsizlik va texnologik suverenitet masalalari. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro texnologiyalar bozoridagi ishtiroki. Texnologiyalarni o'zlashtirish, mahalliyashtirish va adaptatsiya qilish, inson kapitali va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish masalalari.

19. Xalqaro kapital harakatining zamonaviy ko'rinishlari

